

**QO‘QON XONLIGINING IQTISODIY HAYOTIDA ICHKI SAVDONING O‘RNI
(1701-1876)****Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi**
NDPI Tarix Fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining iqtisodiy hayotida ichki savdoning muhim roli, asosiy savdo va tijorat markazlari, bozorlar, karvonsaroylar, narx-navo, dallollik, hunarmadchilik, dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari savdosi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Banoras, Norbo‘tabiy, Erdonabiy, tijorat, dallol, olacha, yaktak, Olatov, Ketmontepa qo‘rg‘oni, La‘lxona, sirka, karvonsaroy, ipak, gilam, kigiz, pul, Namangan, Xo‘jand, O‘rta Osiyo, Turon, vaqf, infratuzilma, bozor, mo‘yna, beqasam.

Savdo aloqalari xonlik iqtisodiy hayotida muhim va katta o‘rin egallagan. Ichki savdo o‘troq dehqonlar, ko‘chmanchi chorvadorlar va shahar-qishloq hunarmandlari orasidagi an‘anaviy mahsulot ayirboshlashga asoslangan. Aholining kundalik ehtiyojlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan ta‘minlanib turilgan. Barcha ichki savdo chakana bo‘lib, ulgurji savdo deyarli bo‘lmagan. Qo‘qon hukmdorlari Shoxruhbiy, Abdurahimbiy va Abdukarimbiylar davrida xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qoniqarli emas edi, chunki ushbu hukmdorlar asosiy e‘tiborni davlatning siyosiy mavqeyini mustahkamlash, ichki va tashqi dushmanlarni bartaraf etishga qaratganlar. Bu davrda an‘anaviy savdo aloqalari olib borilgan bo‘lsada, tartibsiz va deyarli nazoratsiz edi.

Erdonabiy hukmronlik taxtiga o‘tirgandan so‘ng, iqtisodiy hayot biroz yaxshilanib, aholi farovonligi oshib borgan. Norbo‘tabiy taxtga o‘tirgandan so‘ng xonlikning nisbatan taraqqiyot davri boshlandi.

Qo‘qon bozorlari o‘zining mahsulotlarga boyligi va narx-navoning boshqa shaharlarga nisbatan ancha arzonligi bilan ajralib turgan. Shaharning devorlar bilan o‘ralgan katta bozorlari mahalliy aholi va chetdan kelgan savdogarlar bilan doimo gavjum bo‘lgan. Xonlikda 6 ta bozor bo‘lgan, ularning ikkitasini mahalliy aholi, 4tasini chet ellik savdogarlar egallardi. Ushbu bozorlar yakshanba, chorshanba, payshanba kunlari faoliyat olib borgan.¹ Bu bozorlarda qattiq nazorat o‘rnatilgan bo‘lib, xaridor haqqiga hiyonat qilganlar qattiq jazoga tortilganlar.

Mamlakatning eng asosiy savdo va tijorat markazlari Qo‘qon, Toshkent, Marg‘ilon, Andijon, Xo‘jand, Namangan, O‘sh, O‘ratepa kabi shaharlar bo‘lib, ularning orasida Qo‘qon nafaqat xonlik, balki butun O‘rta Osiyoning savdo markazlaridan biri deb hisoblangan. Xonlikning yirik shaharlarida haftasiga 2-3 marta, kichikroq shahar va katta qishloqlarda, bir-biriga yaqin bo‘lgan bir nechta kichik qishloqlar tutashgan joylarda esa 1 marta bozor bo‘lgan. Qo‘qon bozori Buxoro bozoridan so‘ng Turonda eng yaxshi bozorlardan biri bo‘lgan.

Qo‘qon shaharlari bozorlaridagi do‘konlar uch turga bo‘lingan: hukmron sulola vakillari va turli amaldorlarga tegishli, xususiy va vaqf do‘konlariga. Xonlikda shakllangan bozor infratuzilmasining qismlaridan biri karvonsaroylar hisoblangan. Ular turli hududlardan kelgan savdogarlarning yashashi, yuk va ulovlarini saqlashi uchun mahsus qurilgan inshootlar edi. Karvonsaroylarda savdogarlar yashashidan tashqari undagi do‘konlarda savdo qilish imkoniyati ham bo‘lgan.

¹ Haydarbek Bobobekov “Qo‘qon tarixi” Toshkent-Fan-1996, b-111

Mahalliy aholi Qo‘qon bozorlariga hunarmandchilik va shahar atrofidan dehqonchilik mahsulotlari olib chiqqan. Ushbu bozor Farg‘ona vodiysiga qo‘shni hududlardan kirib kelayotgan mollarning asosiy tarqatuvchi markazi bo‘lib, uning bozorlarida xonlikning turli hududlaridan kelgan savdogarlarni ko‘rish mumkin edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, turli hududlar orasida savdo aloqalari ancha yaxshi rivojlangan. Qo‘qondan Toshkentga paxta, xom ipak hamda ipak, yarim ipak matolar ho‘l va quruq mevalar, Qashqar va Xitoy mollari keltirilgan. XIX asrning birinchi yarmida Farg‘ona vodiysiga Toshkentdan har yili 10 mingdan ortiq tuyada g‘alla, temir, po‘lat, cho‘yan, mis va ulardan yasalgan buyumlar, shakar, charm, mo‘yna va boshqa rus sanoat mollari, qozoq dashtlaridan chorva olib ketilgan.²

Xonlik davrida Farg‘ona-Toshkent savdo aloqalarida vodiylik savdogarlar katta o‘rin tutgan bo‘lib, ikki oradagi savdoning faqat 30 foizi toshkentlik savdogarlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. XIX asrning o‘rtalarida vodiyaning Toshkentga 4mln 580 ming rubllik mol olib borilgan bo‘lsa, Toshkentdan 2 mln 375 ming rubllik mol olib ketilgan. Bu davrda Toshkent va Qo‘qonning yillik savdo aylanmasi 7 mln rublga teng bo‘lgan.

Birinchi rus sharqshunos akademigi V.V.Velyaminov. Zernovning ma‘lumot berishicha, eng katta bozorlar Qo‘qon va Toshkentda bo‘lib haftada 2 marta yakshanba va chorshanba kunlari bo‘lishini, ayniqsa bozorga ot va qo‘ylar, qo‘shni hududlardagi aholining esa g‘alla, ip gazlamalar va turli xil xo‘jalik ehtiyojiga zarur bo‘lgan buyumlarni olib kelishini ta‘kidlaydi.³

Ichki savdoda muhim o‘rin egallagan mahsulotlarning katta qismi to‘qimachilik mahsulotlari edi. Olacha-bo‘yalgan ipdan tayyorlangan yo‘l-yo‘l mato ham xaridorgir bo‘lgan, chunki undan chopon va yaktaklar tikishda foydalanishgan. O‘sha davrda aholining kundalik kiyimlari shulardan iborat bo‘lgan. Qo‘qon bozorlarida ipak gazlamalar hamda ip va ipak aralashgan matolar rang-barangligi bilan alohida ajralib turgan. Ipakchilikning ilk mahsuloti hisoblangan pilla yangi yetishtirilgan holatda bahorda va quritilgan holatda kuzda bozorlarga keltirilgan. XIX asrning o‘rtalarida Toshkent bozorlarida Marg‘ilonda ishlab chiqarilgan bir choponlik banoras 20-25-tanga, beqasab 14-18tanga, adras 18-20 tanga miqdorida baholangan.⁴

Xonlik bozorlarida xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi kelishuvda dallolning o‘rni katta bo‘lgan. Dallollar asosan chorva bozorlaridagi savdo-sotiqda va karvonsaroylardagi ulgurji savdoda muhim o‘rin egallashgan. Keyinchalik boshqa turdagi bozorlarda ham dallolar xizmatidan foydalanish boshlangan. Hattoki, Xudoyorxonning maxsus farmoni bilan har bir shahar va qishloq bozorlarida sotilayotgan mollar uchun alohida dallollar tayin etilgan. Dallollar o‘zlari ishtirokida sotilgan molning 1 foizi miqdorida xizmat haqqi olganlar. Masalan, chit rastasida 100 tillolik mol sotilsa, sotuvchi va xaridorning har biri 1 tangadan dallolga xizmat haqqi bergan. Dallolardan mahalliy va bir necha xorijiy tillarni bilishlari ham talab etilgan. Ularning xizmatidan xon xazinasiga katta miqdorda daromad tushgan.

Ichki savdoda ko‘chmanchi va chorvador aholi tomonidan tayyorlangan gilam, sholcha, namat muhim o‘rin tutgan. Xonlik shaharlarida bu mahsulotlarning o‘z bozorlari bo‘lgan. Andijon -gilam, Namangan esa qoraqalpoqlar va qirg‘izlar tomonidan keltirilgan kigiz bozori bilan mashhur bo‘lgan.

² Akbar Zamonov, Alisher Egamberdiyev “O‘zbekiston tarixi” Toshkent, 2022 b-341-342.

³ V.Velyaminov .Zernov. “Qo‘qon xonligining ruslar uchun savdo ahamiyati qo‘lyozmasi” .A.Navoiy nomli davlat kutubxonasi .PU-3579.

⁴ Akbar Zamonov, Alisher Egamberdiyev “O‘zbekiston tarixi” Toshkent, 2022 b-342-343.

Farg'ona vodiysida iyun boshlaridan kuz oxirlarigacha yog'och savdosi qizg'in tarzda kechgan. Namangan bekligiga kiruvchi Zarkent, Mamay, Nanay, Navkent qishloqlari aholisi atrofdagi tog'lardan archa va qarag'ay daraxtlarini kesib yog'och tayyorlashgan. Ushbu hududdan butun xonlik bo'ylab tarqatilgan. Marg'ilon bozorlari yiliga 17 ming tuyada xonlikning turli bozorlariga yog'och yetkazib bergan. Ushbu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Marg'ilon butun xonlikni qurilish mollari bilan ta'minlagan. Bu mahsulotlar yordamida aholi o'zlari uchun turar-joylar, shuningdek savdo rastalari, karvonsaroylar, masjid va madrasalar qurishda foydalanishgan.

Shuningdek, ichki bozorlarda qimmatbaho metallar savdosi bilan ham shug'ullanilgan. Masalan, Namangan bozorlariga oltin Kosonsoydan olib kelingan. Kumush va qo'rg'oshin esa Olatov tog'laridan va Ketmontepa qo'rg'onidan, Andijon yaqinidagi La'lxona mavzesidan olib keltirilgan hamda xonlikning boshqa hududlariga tarqatilgan. Namangan yaqinidagi Mingbuloq konidan va Andijon yaqinidagi Izbosgandan 24 km shimolda joylashgan Moylisuv daryosi yaqinidan hamda Qoradaryoning o'ng qirg'og'idagi Oyim qishlog'idan neft qazib olingan hamda mahalliy bozorlarda sotilgan. Mahalliy aholi neftdan turli teri kasalliklarni ya'ni yara-chaqa, qo'tir kabilarni davolashda dori vositasi sifatida foydalangan.

Xo'jand atroflaridan xonlik aholisi selitra va oltingugurt qazib olishgan. Temir esa xonlik bozorlariga Rossiyadan olib kelingan shu bilan birgalikda Xo'jand atroflaridan ham qazib olingan. Namangan va O'sh atroflaridan esa aholi tuz qazib olishgan va o'z ehtiyojlarini qondirishgan.

Bozorlardagi narx-navo bir xilda turmagan. Narx-navo xonlikdagi tinchlik-osooyishtalik, urushlar, ob-havoning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning pasayishi kabi omillarga qarab o'zgarib turgan.

Ichki savdoda dehqonchilik mahsulotlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xonlik bozorlari meva va poliz mahsulotlarining yil davomida to'kinligi va arzonligi bilan mashhur bo'lgan. 1856-yil tarvuz 2 pul, qovun 1pul, 10 ta bodring 1pul chorak uzum 6 puldan sotilgan. Shuningdek, xonlik bozorlarida yetishtirilgan anordan Namangan va Toshkent shaharlarida sirka tayyorlangan va ushbu mahsulot rus savdogarlari orasida xaridorgir bo'lgan.⁵

Bundan tashqari, xonlik aholisi chorvachilik mahsulotlari savdosi bilan ham faol shug'ullanganlar. Chorva hayvonlari transport vazifasini bajarish bilan bir qatorda ularning juni, terisi, go'shti, suti va sut mahsulotlaridan xo'jalik hayotda keng foydalanilgan. Chorva savdosi asosan namanganliklar qo'lida edi. XIX asr 60-yillari o'rtalarida Qo'qon bozorida arg'umoq otlar 20-80 tillo, yuk tashuvchi oddiy otlar esa 15 tillodan sotilgan, qirg'iz otlari 2-6 tillo miqdorida baholangan. Ho'kizlardan asosan go'shti va yerlarni shudgor qilishda foydalanishgan, uning bahosi 4-6 tillo etib baholangan, sigir o'rtacha 2.5 tillo, qo'y 1 rubl 50 tiyindan 4 rublgacha, bir o'rkachli tuya 8-12 tillo, ikki o'rkachli tuya 5-6 tillo, eshak va xachirlar 17-20 tangadan sotilgan.

Xonlik aholisi yoqilg'i sifatida saksovul va ko'mirdan foydalangan. Marg'ilon bozoriga katta miqdorda asosan tog'li hududlardan o'tin olib kelingan va yiliga 30 ming arava o'tin sotilgan. Aholi kundalik ehtiyojlari uchun foydalangan.

Qo'qon bozorlarida boshqa xonlik bozorlari singari o'g'rilik holatlari ham uchrab turgan. Lekin juda kam miqdorda sodir etilgan, chunki o'g'rilar juda og'ir jazolarga tortilganlar. Masalan, qo'y o'g'irlagan kishining barmoqlari kesib tashlangan hamda qaynab turgan chelakka tiqilgan, undan so'ng esa eshakka teskari o'tirgizib, bozor aylantirilgan. Tarozidan urgan kishilar esa yalang'och tarzda bozor aylantirilgan. Ushbu tayinlangan

⁵ Madrahimov.Zohid "Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi".-T: Yangi nashr ,2014.33-82-b.

jazolar bozorlarda, aholi gavjum hududlarda o'g'rilik holatlarini kamaytirishga, tartib-intizomni saqlashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xonlik tashkil topishining dastlabgi davrlarda iqtisodiyotga yetarlicha e'tibor qaratilmagan bo'lsada, keyingi hukmdorlar davrida iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bir qator iqtisodiy jihatdan yuksalgan tijorat markazlari tashkil etildi. Albatta ushbu omillar xonlikning ichki savdosini rivojlantirib, mamlakatning yanada yuksalishiga xizmat qilgan. Shuningdek, ichki savdo munosabatlarning rivojlanishi xonlik shaharlarining muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarilishi va sotishga ixtisoslashuviga olib keldi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini tezlashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarbek Bobobekov "Qo'qon tarixi" Toshkent-Fan-1996, b-111
2. Madrahimov.Zohid "Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi".-T: Yangi nashr ,2014.33-82-b.
3. Akbar Zamonov, Alisher Egamberdiyev "O'zbekiston tarixi" Toshkent, 2022 b-342-343.
4. V.Velyaminov .Zernov. "Qo'qon xonligining ruslar uchun savdo ahamiyati qo'lyozmasi" .A.Navoiy nomli davlat kutubxonasi .PU-3579.